

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10862508>

## HUDUDLARDA INVESTITSIYAVIY FAOLLIKNI OSHIRISH ZARURLIGINING ILMIY-ASOSLARI

**Jumayeva G.J**

QMII, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi prof.v.b., i.f.n.

**Xikmatova M.A**

QMII. “Bank ishi va audit” ta’lim yo‘nalishi talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada mamlakatda investitsion siyosatning ijrosini ta’minlashda hududlarda investitsion faollikni oshirish zarurligining ilmiy asoslari investitsion loyihalar taklifi va texnik iqtisodiy asosnomaning ahamiyayti orqali asoslangan.*

**Kalit so‘zlar:** investitsiya, moddiy, nomoddiy, boylik, loyiha, faoliyat, tadbirkorlik, raqobat, bank, moliyalashtirish

### **ABSTRACT**

*In this article, the scientific basis of the need to increase investment activity in the regions to ensure the implementation of the investment policy in the country is based on the importance of the proposal of investment projects and the technical and economic basis.*

**Keywords:** investment, tangible, intangible, wealth, project, activity, entrepreneurship, competition, banking, financing.

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье научное обоснование необходимости повышения инвестиционной активности в регионах для обеспечения реализации инвестиционной политики в стране основывается на важности предложения инвестиционных проектов и технико-экономической основы.*

**Ключевые слова:** инвестиции, материальное, нематериальное, богатство, проект, деятельность, предпринимательство, конкуренция, банковское дело, финансирование.

## KIRISH

O‘zbekistonda iqtisodiy tarhitni aqqiyotni yanada yuksaltirishda investitsion faollikni oshirish dolzarb masala hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi”ning 1-ilovasida keltirilgan 26-maqсадga ko‘ra, “...kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish”<sup>1</sup> belgilangan bo‘lsa, “Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko‘paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish”<sup>2</sup> masalalari mazkur hujjatning 27-maqсадida belgilangan.

**MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI.** Investitsiya, investitsion loyihalar va uni moliyalashtirish, hududlarda isvestitsion jozibadorlikni oshirish va investitsion siyosat, investitsiya muhiti va unga ta’sir etuvchi omillarga bag‘ishlangan masalalar ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan yaratilgan nazariy manbalarda yoritilgan. Xususan, G.Podshivalenko va N.Kiselevalar hammuallifligidagi o‘quv qo‘llanmaga ko‘ra, “Investitsiyalash to‘g‘risidagi qarorlarni qabul qilishda eng keng tarqalgan mezonlardan biri bu – makrodarajadagi investitsion muhit va investitsiyalash obyektining investitsiyaviy jozibadorligini baholash hisoblanadi”<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son [Farmoniga](#) 1-ilova. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi. 26-maqсад [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son [Farmoniga](#) 1-ilova. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi. 27-maqсад [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

<sup>3</sup> Инвестиционная деятельность: учебное пособие / Н.В. Киселева, Т.В. Боровикова, Г.В. Захарова и др.; под ред. Г.П. Подшиваленко и Н.В. Киселевой. – 2-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2006. –432 с.

Ba’zi nazariy manbalarda investitsiya muhitini yaratish ko‘plab omillar ta’siriga bog‘liqligi<sup>1</sup>, uning tahlilida esa ichki va tashqi xususiyatlarga e’tibor qaratilishi va bu yo‘nalishda investitsiya muhitining rivojlanish darajasi, uning jozibadorligi va investitsiya riskini aniqlash usullarining ahamiyati muhimligi qayd etilgan<sup>2</sup>.

O‘zbekistonlik olimlardan B.A.Oxunov maqbul investitsiya muhiti tushunchasiga quyidagicha ta’rif bergan: “Maqbul investitsiya muhiti – investitsiya faoliyatini amalgaloshirish uchun davlat tomonidan mamlakat va investorlar xavf-xatarlari hamda manfaatlarini hisobga olgan holda shakllantirilgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar tizimidir”<sup>3</sup>.

**TADQIQOT USULLARI.** Mavzuni o‘rganishda va tadqiq etishda mantiqiy tafakkur, monografik kuzatuv, induksiya va deduksiya, analiz va sintez kabi ususllardan keng foydalanilgan.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Bugungi zamонави iqtisodiyotda har qanday korxona o‘z faoliyatini boshlashi, kengaytirishi va yangilashi uchun investitsiyalarga ehtiyoj sezadi. Investitsiyalar korxonalarini rivojlantirish, mamlakatda iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning asosiy omillaridan biridir. Xusan, O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuning 3-moddasiga ko‘ra, “investitsiyalar - investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obektlariga bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar”<sup>4</sup> kiradi.

Tahlillarga ko‘ra, mamlakatimizda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar salmog‘i va samarasi yildan yilga oshib bormoqda. Xusan, xorijiy investitsiyalarni

<sup>1</sup>Бродский М.Н., Костенко С.И. Инвестиции как источник конкурентоспособности // Ученые записки Института права С.Петербургского государственного университета экономики и финансов. / Под ред. А.А.Ливревского. – СПб, 2001. Вып. 6. С.95.

<sup>2</sup> <http://ifc.org>, <http://economic-dictionary.ru>

<sup>3</sup> Oxunov B.A. O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o’sishi sharoitida maqbul investitsiya muhitini shakllantirish (Farg’ona vodiysi viloyatlari misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiy. - Toshkent, 2010.

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuning 3-moddasi. [www.lex.uz](http://www.lex.uz). *Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2019-y., 03/19/598/4221-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son*

jalb qilishning bir necha usullari mavjud bo‘lib, aynan, faol investitsiya siyosatini olib borayotgan rivojlanayotgan davlatlarda ulush qo‘sib qo‘shma korxonalar tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb etish maqsadga muvofiq hiaoblanadi. Chunki, tomonlar o‘rtasida aniq shartnomaviy munosabatlarning o‘rnatalishi nafaqat moliyaviy, balki, institisional va investitsion loyihalarni identifikatsiyalash masalalarida ham samarali hamkorlikni o‘rnatish imkonini beradi.

Manbalarga ko‘ra<sup>1</sup>, o‘tgan 5 yilda sanoat 1,4 barobar, eksport 1,5 barobarga oshgan.

Respublikamizdagi aksariyat viloyatlar iqtisodiyoti o‘rganilganga kichik biznesning sanoatdagi ustun mavqeyi va unda investitsiyaviy faollik kuzatiladi.

Biroq tadqiqot obekti sifatida tanlangan Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning ulushi yalpi hududiy mahsulotda 2022 yilda 68,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2019 yilga nisbatan -1,4 foizga kamaygan. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, organiliyotgan davrlarda kichik biznes subektlarining ulushi sanoatdan ko‘ra, qishloq xo‘jaligida ancha yuqori (1-jadval).

1-jadval

### **Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kichik biznesning salmog‘i<sup>2</sup>**

(foizda)

<i>Iqtisodiyot tarmoqlari</i>	<i>2019 yil</i>	<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2022 yilda 2019 yilga nisbatan o‘zgarishi</i>
<i>Yalpi hududiy mahsulotda kichik biznesning ulushi</i>	69,5	69,9	69,0	68,1	-1,4
Sanoatda	22,5	34,7	26,3	26,3	3,8
Qishloq xo‘jaligida	99,6	98,9	99,0	98,1	-1,5
Investitsiyada	29,7	18,0	26,0	27,6	-2,1

Ushbu holat kichik biznes subektlarida investitsiyaviy faollikka ham ta’sir ko‘rsatgan. Xususan, investitsiya faoliyatida kichik biznesning ulushi oxirgi uch yillikda biroz oshgan bo‘lsada, 2022 yil ma’lumotlari 2019 yil ma’lumotlariga

<sup>1</sup> <https://daryo.uz/2023/02/27/ozbekistonda-2023-yilda-11-mlrd-dollarik-togridan-togri-xorijiy-investisiya-ozlashtiriladi>

<sup>2</sup> Qashqadaryo viloyatining 2022 yil yakunlari bo‘yicha statistik axborotnomasi asosida muallif tomonidan hisob-kitob qilingan.

qiyoslanganda salmoq -2,1 foizga kamaygan. Sanoat tarmog‘da esa kichik biznes subektlarining ulishi 2022 yilda 2019 yilga nisbatan 3,8 foizga oshgan bo‘lib, ushbu yo‘nalishda investitsion faollilikni oshirish imkoniyati ancha yuqori.

Tadqiqotlarimiz ko‘rsatadiki, hududlarda iqtisodiyotning belgilangan darajada barqaror o‘sishi uchun sanot tarmog‘ini rivojlantirish va undan drayver sifatida foydalanish maqdasga muvofiq hisoblanadi. Chunki, sanoat tarmog‘ida ishlab chiqarishning uch-to‘rt bosqichli qayta ishlash tizimini joriy etish orqali qo‘srimcha qiymatni ko‘paytirish, aholi bandligini oshirish, yangi ishchi o‘rinlar yaratish, nafataq ichki bozorlarni raqobatbardosh mahsulotlar bilan to‘ldirish, balki tarmoqning eksport salohiyatini ham yanada oshirish imkoniyati yuzaga chiqadi. Bunda hududiy investitsion siyosatni yanada faollashtirish, investitsion loyihalarni ishlab chiqish va moliyalashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, respublikamiz hududlarining sanoatlashish darajasi turlicha bo‘lib, ba’zi huquqlarda to‘qimachilik, charm, qurilish materiallari, elektr texnikasi, oziq-ovqat, farmatsevtika, zargarlik kabi tarmoqlarda innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish amaliyoti ancha past darajada qolishi muammo hisoblanadi.

**XULOSALAR.** Tahlillarimiz ko‘rasatidiki, yuqorida qayd etilgan holatlarda muammo yechimini ta’minalash, yoxud innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirish uchun investitsion loyihalar taklifi va ularning texnik asosnomalarini tayyorlash maqsadga muvofiq. Chunki, investitsion loyihalar taklifi va ularning texnik iqtisodiy asosnomasi xorijiy investitsiyalarni jalb etishda asosiy hujjat va dastak hisoblanadi. Biroq aksariyat hududlarimizda tadborkorlarda yangi investitsion loyihalar takliflarini ishlab chiqish va investorlarga taqdim etishda tajriba, ko‘nikmalarining yetarli emasligi o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Ushbu salbiy ta’sirlarning asosiy sabablariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Investitsion loyihalar bo‘yicha marketing tadqiqotlarining chuqur olib borilmasligi va bu loyihaning kelgusidagi pul oqimlari harakatining barqarorligiga hamda moliyaviy manbaning ishonchligiga salbiy ta’sir etishi;

Investitsion loyihalar tashabbuskorlari duch keladigan asosiy muammolardan biri-moliyalashtirishning nokredit usullaridan kam foydalanish (lizing, faktoring, franchayzing va boshqalar);

Investitsion loyihalarning texnik-iqtisodiy asosnomasining belgilangan talablar darajasida sifatli tayyorlanmasligi va boshqalar.

Biz ushbu muammolarni tadqiq etish jarayonida investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi takliflarni e’tirof etamiz:

Tijorat tuzilmalarini kafolatga bo‘lgan talabini ta’minlash maqsadida kafolatgarov jamg‘armalari tizimini shakllantirish;

Aholi bo‘sh pul mablag‘larini maqsadli va samarali holatda investitsion jarayonlarga jalgan etish uchun qimmatli qog‘ozlar bozorini yanada rivojlantirish, turli qimmatli qog‘zlarni muomalaga chiqarish (uy-joy sertifikat va boshqalar);

Ishlab chiqarishni tuzilmaviy-texnologik yangilashda xorijiy investitsiyalardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish;

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishning nokredit usullaridan bo‘lgan lizing, franchayzing, faktoring kabilardan foydalanishni kengaytirish;

Investitsion loyihalarni sifatini oshirish, loyihalarni kapital qo‘yilmalar samaradorligi talablariga mos kelishi maqsadida tijorat asosida doimiy ravishda faoliyat yuritadigan investitsion loyihalar ko‘rgazmasini tashkil qilish va h.k.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son [Farmoniga](#) 1-ilova. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi. 26-maqсад .[www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son [Farmoniga](#) 1-ilova. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi. 27-maqсад .[www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. Инвестиционная деятельность: учебное пособие / Н.В. Киселева, Т.В. Боровикова, Г.В. Захарова и др.; под ред. Г.П. Подшиваленко и Н.В. Киселевой. – 2-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2006. –432 с.
4. Бродский М.Н., Костенко С.И. Инвестиции как источник конкурентоспособности // Ученые записки Института права С.Петербургского государственного университета экономики и финансов. / Под ред. А.А.Ливревского. – СПб, 2001. Вып. 6. С.95.
5. <http://ifc.org>, <http://economic-dictionary.ru>
6. Oxunov B.A. O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishi sharoitida maqbul investitsiya muhitini shakllantirish (Farg‘ona vodiysi viloyatlari misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiY. - Toshkent, 2010.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyatiga to‘g‘risida”gi Qonuning 3-moddasi. [www.lex.uz](http://www.lex.uz). *Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2019-y., 03/19/598/4221-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.*
8. <https://daryo.uz/2023/02/27/ozbekistonda-2023-yilda-11-mlrd-dollarik-togridan-togri-xorijiy-investisiya-ozlashtiriladi>
9. Qashqadaryo viloyatining 2022 yil yakunlari bo‘ yicha statistik axborotnomasi. Qarshi-2023yil.